



O‘ZARO ISHONCH, HURMAT VA HAMJIHATLIK MARKAZIY OSIYONI TINCHLIK, HAMKORLIK VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK MAKONIGA AYLANTIRDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 11-12-dekabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 12-dekabr kuni Ashxobod shahridagi Betaraflik monumnti poyiga gul qo'yish marosimida ishtirok etdi.

Turkmanistonning insonparvarlik g'oyalari, tinchlik, bunyodkorlik hamda egzulik tamoyillariga sodiqligini ifodalovchi Betaraflik va "Betaraflikning 30-yilligi" yodgorliklarini o'z

ichiga olgan majmua hamda unga tutash landshaftli bog' Turkmaniston doimiy betarafligining 30 yilligi hamda "Xalqaro tinchlik va ishonch yili"ni nishonlashga tayyorgarlik doirasida qayta qurildi va tantanali ravishda ochildi.

Prezidentimiz boshqa xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan birga monument poyiga gul qo'yd.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ashxobod shahrida Turkmaniston doimiy betarafligining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni hamda 2025-yil "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" deb e'lon qilinganiga bag'ishlangan xalqaro forumda ishtirok etdi.



Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o'tgan tadbirida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas'ud Peshshkiyon, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev,

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon hamda boshqa davlatlar yetakchilari, hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham qatnashdi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Turkmanistonni doimiy betaraflikning

30 yilligi bilan samimiy tabriklab, ushbu qutlug' sana Turkmanistonning dunyoning barcha mamlakatlari bilan tinch, ishonchli, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga doimo sodiq bo'lib kelayotganini o'zida mujassam etishini qayd etdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING TINCHLIK VA ISHONCH XALQARO FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi, qadrli birodarim, hurmatli Gurbanguli Myalikgulyevich Berdimuhamedovga samimiy qabul va bugungi forumni yuksak darajada tashkil etgani uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Turkmaniston rahbariyatini va butun qardosh turkman xalqini milliy bayram — Doimiy betaraflik e'lon qilganining 30-yilligi bilan tabriklayman.

Ushbu qutlug' sana Turkmanistonning dunyoning barcha mamlakatlari bilan tinch, ishonchli, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga doimo sodiq bo'lib kelayotganini o'zida mujassam etadi.

Biz mazkur forumni tinchliksevarlik va tinchlikparvarlik g'oyalari ilgar surish, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlash, shuningdek, dolzarb xalqaro masalalarni muloqot hamda muzokaralar vositasida hal qilish yo'llarini izlash uchun muhim siyosiy platforma deb hisoblaymiz.

Hurmatli ishtirokchilar!

Turkman xalqining zamonaviy o'ziga xosligining ajralmas qismiga aylangan Turkmanistonning betarafligi uning chuqur tarixiy an'analari, madaniy va ma'naviy qadriyatlariga, olijanoblik, bag'rikenglik va

yaxshi qo'shnichilik kabi egzu fazilatlariga tayanadi.

Bu fenomen turkman xalqining bugungi bosqichdagi ijobiy betaraflik falsafasining me'mori — Gurbanguli Myalikgulyevich Berdimuhamedovning hal qiluvchi roli tufayli butun dunyoda keng e'tirofga sazovor bo'ldi.

Tanlangan strategik yo'nalish Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Serdar Gurbanguliyevich tomonidan yangicha jadalik bilan amalga oshirilmogda.

Turkmanistonning doimiy betaraflik modeli suverenitetni hurmat qilish va ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillari faol tinchlikparvarlik hamda diplomatik faoliyat bilan qanday uyg'unlashishi mumkin ekanini yorqin namoyish etmogda. Ashxobodda BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun preventiv diplomatiya mintaqaviy markazi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani buning yaqqol dalilidir.

Biz O'zbekistonda turkmanistonlik qardoshlarimizning strategik qarashlari va tashqi siyosiy yondashuvlariga ko'p jihatdan qo'shilamiz.

Shu bois, birodar Turkmanistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Tinchlik va betaraflik universitetini tashkil etish bo'yicha tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz.

Yangi O'zbekiston uchun jahonga ochiqlik, o'zaro hurmat va muloqotga intilish — fundamental qadriyatlardir. Aynan shu sababli biz umumiy xavfsizlik va farovonlik yo'liga

birdamlik bo'yicha Samarqand tashabbusini ilgari surdik. Ushbu tashabbus insoniyat kelajagi uchun befarq bo'lmagan, tinchlik, totuvlik va barqaror taraqqiyot uchun intilayotgan barcha tomonlarni muloqotga jalb etishga qaratilgan.

Ishonchimiz komilki, faqat o'zaro hurmat va tushunishga tayangan gumanistik hamda inklyuziv yondashuvlarga zamonaviy xalqaro hamkorlik konstruksiyasini mustahkamlashga qodir.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning Qo'shilmaslik harakatidagi bo'lajak raisligi davrida biz tinchlik va zo'ravonlikdan xolilik madaniyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha global harakatni rag'batlantirish, siyosiy muloqot asosida davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash, jahonda bag'rikenglik, hamjihatlik va birdamlik muhitini qaror toptirishga ko'maklashishni bosh ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilash niyatidamiz.

Biz raisligimiz davomida kelgusi avlodlar manfaatlari yo'lida mojarolarni hal qilish borasidagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun 2027-yilni Preventiv diplomatiya yili deb e'lon qilishni rejalashtirmogdamiz. Uning doirasida konferensiya va forumlar tashkil etish, parlament, jamoat va yoshlar delegatsiyalarining o'zaro almashuvlarini qamrab oladigan tadbirlar dasturini qabul qilamiz. Uning amalga oshirilishida BMTning ixtisoslashgan institutlari, jumladan, Ashxoboddagi Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz faol ishtirok etishiga umid qilamiz.

Hurmatli do'stlar!

Global miqyosda keskinlik saqlanib qolayotgan va davlatlar o'rtasida ishonch zaiflashayotgan hozirgi sharoitda tinchliksevarlik va vositachilik tamoyillariga umumiy sodiqlik har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormogda.

Aynan shu sababli ham Turkmanistonning 2025-yilni "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" deb e'lon qilish haqidagi taklifi jahon hamjamiyatining eng muhim talablariga javob beradi.

Ushbu global g'oya qarama-qarshiliklarni rad etadigan, mojarolarni muzokaralar stoli atrofida hal qilishga sodiq va tinchlik o'rnatish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rish tarafdori bo'lgan mamlakatlarning birlashishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Shuni ta'kidlashni istardimki, o'zaro ishonch, hurmat va jipslik tamoyillari bizning Markaziy Osiyoni tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik makoniga aylantirish borasidagi siyosatimizning ham asosidir.

O'tgan oyda Toshkentda bo'lib o'tgan mintaqaviy davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi hamjihatlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlar, ko'pgirali iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanimizni yana bir bor ko'rsatdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Turkmanistonning konstruktiv hamda tinchliksevarlik siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Rasmiy Ashxobod 2018-yilda — ko'p yillardan buyon birinchi marta Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga a'zo davlatlar rahbarlarining birinchi sammitini tashkil etgan holda, Jamg'arma doirasida oliy darajadagi muloqotlarni qayta tiklashda katta rol o'ynadi.

Shu yilning avgust oyida Avazada BMTning dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasining o'tkazilishi mintaqada yagona transport-logistika makonini shakllantirishga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb etish va infratuzilmaviy bog'liqlikni kuchaytirish orqali tinch yo'l bilan rivojlantirishga ko'maklashish masalalari bo'yicha bizning va Turkmanistonning yondashuvlari to'liq mos keladi.

Ashxobodning energetika va suv xavfsizligi, barqaror transport bog'liqligini ta'minlash, shuningdek, mintaqada ekotizimni himoya qilish bo'yicha tashabbuslari bizning Markaziy Osiyodagi sa'y-harakatlarimizni tabiiy ravishda to'ldirmogda.

Turkmanistonning zamirida tinchlik va ishonch kabi egzu g'oyalari mujassam bo'lgan bu takliflari uning mintaqaviy davlatlari

rahhbarlari Maslahat uchrashuvlari formatida raisligi davomida kun tartibidan munosib o'rin egallashiga aminman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! O'zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikka asoslangan hamkorlik eng ulug'vor rejalarni hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Shuning uchun ushbu rejalarni gumanitar hamkorlik orqali ilgari surish muhim.

Shu munosabat bilan kelgusi yili Toshkentda ijodiy jamoalar, olimlar va adiblar ishtirokida "Madaniyatlar muloqoti" deb nomlangan qo'shma xalqaro gumanitar forumni tashkil etish, shuningdek, ta'lim, madaniyat va volontyorlik harakati sohalaridagi tashabbuslarni birgalikda amalga oshirish orqali yoshlarni tinchlik va ishonch jarayonini mustahkamlashga jalb etishga yo'naltirilgan "Yoshlar tinchlik va ishonch yo'lida" mintaqaviy dasturini joriy etishni taklif qilamiz.

Qadrl do'stlar! Tinchlik va ishonch — umumiy farovonlik asosidir. Bu qadriyatlarini mustahkamlash butun xalqaro hamjamiyat uchun hal qiluvchi ustuvor yo'nalish bo'lib qolishi zarur.

O'zbekiston dunyoda adolatli va barqaror tartibotni barpo etishga bundan buyon ham amaliy hissa qo'shishga tayyor.

Forum ishtirokchilariga sermahsul faoliyat, qardosh Turkmaniston xalqiga esa tinchlik, farovonlik va yanada ravnaq topishni tilayman.

PARAGVAY RESPUBLIKASI PREZIDENTINING MAMLAKATIMIZGA TASHRIFI SAMARALI BO‘LMOQDA

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.

Oliy martabali mehmon 12-dekabr kuni "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumnti poyiga gulchambar qo'ydi.

Ulug' va xayrli maqsadlar yo'lida egzu amallari bilan yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimiz siyosiga bugun dunyo ahli ehtirom ko'rsatmogda.

Mamlakatimiz o'tmishi va kelajagiga ishonch timsoli bo'lgan Mustaqillik monumnti ushbu zaminda ma'naviyatning gultoji bo'lgan kamolot sohiblari yetishganidan dalolat berib turibdi.

Paragvay Prezidenti Santyago Penya Mustaqillik monumnti poyiga gulchambar qo'yar ekan, Vatan ozodligi, el farovonligining yorqin ifodasi sifatida mag'rur qad rostlagan majmua qoshida ramziy bosh egib ehtirom ko'rsatdi.

Yurtimiz tarixi, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan bobolarimiz ma'rifati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov hamda boshqa rasmiylar ishtirok etdi.

Poytaxtimizda bunyod etilgan Olimpiya shaharchasi xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o'zbek sportining olamshumul yutuqlariga asos bo'ladi.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya me'moriy jihatdan mukammal, jahon standartlariga mos eng ilg'or innovation yechimlarni o'zida mujassam qilgan Olimpiya shaharchasiga ham tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmonga O'zbekiston Respublikasi sport vaziri Adham Ikromov va Milliy olimpiya qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Otabek Umarov hamrohlik qildi.

Darhaqiqat, bugun ushbu majmua Yangi O'zbekistonning imkoniyatlarini nafaqat Osiyo, balki butun dunyoga ko'rsatmogda. 2022-yil 9-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shaharcha qurilishiga tamal toshini qo'ygan edi. Umumiy maydoni 100 gektardan ziyod bo'lgan majmua dengiz atletika va futbolga ixtisoslashgan stadion, turli sport musobaqalariga mo'ljallangan yopiq va ochiq inshootlar barpo etildi.

Davomi 2-betda



BOZORDA TO'KINLIK VA IQTISODIYOTDA BARQARORLIKNI TA'MINLAMOQDA

O‘ZARO ISHONCH, HURMAT VA HAMJIHATLIK MARKAZIY OSIYONI TINCHLIK, HAMKORLIK VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK MAKONIGA AYLANTIRDI

Boshlanishi 1-betda

— Turkman xalqining zamonaviy o‘ziga xosligining ajralmas qismiga aylangan Turkmanistonning betarafliigi uning chuqur tarixiy an‘analari, madaniy va ma‘naviy qadriyatlariga, olijanoblik, bag‘rikenglik va yaxshi qo‘shnichilik kabi ezuq fazilatlariga tayanadi, — dedi Prezidentimiz.

Shu bois, Turkmanistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Tinchlik va betaraflik universitetini tashkil etish bo‘yicha tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekiston uchun jahonga ochiqlik, o‘zaro hurmat va muloqotga intilish fundamental qadriyatlar ekanligini ta’kidladi. Buning tasdig‘i sifatida umumiy xavfsizlik va faronovlik yo‘lida birdamlik bo‘yicha Samarqand tashabbusi ilgari surilganini keltirish mumkin. Ushbu tashabbus insoniyat kelajagi uchun beqaror bo‘lmagan, tinchlik, totuvlik va barqaror taraqqiyot uchun intilayotgan barcha tomonlarni muloqotga jalb etishga qaratilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizning Qo‘shilmaslik harakatidagi bo‘ljak raisligi davrida O‘zbekiston tinchlik va zo‘ravonlikdan xolilik madaniyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha global harakatlarni rag‘batlantirish, siyosiy muloqot asosida davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash, jahonda bag‘rikenglik, hamjihatlik va birdamlik muhitini quror

toptirishga ko‘maklashishni bosh ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilashni maqsad qilgan.

Raislik davomida, shuningdek, kelgusi avlodlar manfaatlari yo‘lida mojarolarni hal qilish borasidagi sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun 2027-yilni Preventiv diplomatiya yili deb e‘lon qilish rejalashtirilgan. Uning doirasida konferensiya va forumlar tashkil etish, parlament, jamoat va yoshlar delegatsiyalarining o‘zaro almashuvlarini qamrab oladigan tadbirlar dasturi qabul qilinadi.

Prezidentimiz global miqyosda keskinlik saqlanib qolayotgan va davlatlar o‘rtasida ishonch zailashayotgan hozirgi sharoitda tinchliksevarlik hamda vositachilik tamoyillariga umumiy sodiqlik har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganini ta’kidladi. Aynan shu sababli yam O‘zbekiston Turkmanistonning 2025-yilni “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” deb e‘lon qilish haqidagi taklifini qo‘llab-quvvatlab, BMT Bosh Assambleyasining tegishli rezolyutsiyasining hammuallifi bo‘ldi.

O‘zaro ishonch, hurmat va jipslik tamoyillari Markaziy Osiyoni tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik makoniga aylantirish borasidagi siyosatning ham asosi ekanligi qayd etildi.

— O‘tgan oyda Toshkentda bo‘lib o‘tgan mintqa davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi hamjihatlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik

va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha birgalikdagi harakatlar, ko‘pqirrali iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanimizni yana bir bor ko‘rsatdi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu nuqtayi nazardan, Turkmanistonning konstruktiv va tinchliksevarlik siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashning muhim omili hisoblanishiga alohida urg‘u berildi.

Davlatimiz rahbari Turkmanistonning zamirida tinchlik va ishonch kabi ezuq g‘oyalar mujassam bo‘lgan bu takliflari Ashxobodning mintqa davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlari formatida raisligi davomida kun tartibidan munosib o‘rin egallashiga ishonch bildirdi.

Mamlakatimiz yetakchisi o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikka asoslangan gumanitar hamkorlikni ilgari surish muhimligini ta’kidlab, kelgusi yili Toshkentda “Madaniyatlar muloqoti” qo‘shma xalqaro gumanitar forumini tashkil etish va “Yoshlar tinchlik va ishonch yo‘lida” mintaqaviy dasturini joriy etishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida O‘zbekiston dunyoda adolati va barqaror tartibotni barpo etishga bundan buyon ham amaliy hissa qo‘shishga tayyorligini ta’kidladi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI ABDURAIM HAMIDOV



Butun hayoti va mehnat faoliyatini qishloq xo‘jaligi sohasi taraqqiyotiga bag‘ishlagan taniqli fermer, O‘zbekiston Qahramoni Abduraim Hamidov 82 yoshida vafot etdi.

A.Hamidov 1943-yil 20-oktabrda Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida tug‘ildi. Mehnat faoliyatini 1960-yilda tumandagi “O‘zbekiston” jamoa xo‘jaligida mexanizatorlikdan boshladi. Keyinchalik shirkat xo‘jaligi pudratchisi sifatida mehnat qildi. 2007-yilda “Shahand humo qushi” fermer xo‘jaligini tashkil etib, ko‘p yillar davomida fidoyilik bilan faoliyat yuritdi.

A.Hamidov qariyb 60 yillik ish faoliyati mobaynida o‘zini dehqonchilik ilmini chuqur biladigan haqiqiy mirishkor, zamonaviy agrotexnologiyalarni puxta egallagan, paxtachilikda o‘z maktabini yaratgan fidoyi fermer, mehnatsevar, samimiy va el-yurtiga sadoqatli inson sifatida namoyon etib, mamlakatimizda agrar sohada keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakati rivojini yangi bosqichga ko‘tarishga munosib hissa qo‘shdi.

U Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi deputati sifatida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarida alohida faollik ko‘rsatdi.

Abduraim Hamidovning uzoq yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni va O‘zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan edi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasining taniqli namoyandasi, jonkuyar ustoz, samimiy va kamtarin inson Abduraim Hamidovning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV,
A. ARIPOV, S. TURDIYEV, SH. ABDURAZZOQOV

PARAGVAY RESPUBLIKASI PREZIDENTINING MAMLAKATIMIZGA TASHRIFI SAMARALI BO‘LMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Shaharcha ichiga quyosh panellari o‘rnatildi va ular majmua maydonini elektr energiyasi bilan ta’minlaydi. Elektr avtomobillarni quvvatlash uchun ham bekatlar tashkil etildi.

Bu yerda velopoygalar, stol tennis, qilichbozlik bo‘yicha musobaqa va mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyatlari yaratildi. 12 ming o‘rinli stadionda yashil maydon va 9 qatorli yugurish yo‘lagida yengil atletikaning 48 ta yo‘nalishi bo‘yicha musobaqa va tantanal marosimlar o‘tkazish mumkin.

Suv sporti saroyida suzish va suvga sakrash havzalari, basseyn va trenajyor zallari mavjud. Jamoaviy sport majmuasida esa voleybol, basketbol va gandbol bo‘yicha mashg‘ulot hamda xalqaro musobaqalarni o‘tkazish mumkin. Yakkakurashlar majmuasi dzyudo, boks, taekvondo kabi sport turlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santiago Penya Olimpiya shaharchasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, mamlakatimizda sportga bo‘lgan

e‘tiborning naqadar yuksak ekanligiga chin ma‘noda amin bo‘ldi.

Dunyo sport sahnasida O‘zbekiston bayrog‘ining yuksalib borayotganiga sabab bo‘layotgan imkoniyatlarning asosi nimalarda ekaniga e‘tibor qaratib, O‘zbekiston yoshlari bunday e‘tiborga munosib bo‘lib boraverishini ta’kidladi.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santiago Penya Toshkent shahridagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmonga O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov hamrohlik qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan ushbu markaz islom sivilizatsiyasining bebaho ilmiy-ma‘naviy merosini asrash, o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishni maqsad qilgan tarixiy-ma‘rifiy majmua hisoblanadi.

Maskan milliy me‘moriy uslub bilan zamonaviy inshootlar texnologiyasini uyg‘unlashtirgan holda qurilgan. Binoning to‘rt tomonida 34 metrl

peshtoqlar, markaz qismida esa 65 metr balandlikdagi milliy uslubdagi gumbaz qad rostlagan.

Santiago Penya markazdagi Qur‘oni karim zalida ham bo‘lib, musulmon dunyosida yuksak ahamiyatga ega bo‘lgan Usmon Mus‘hafi — Qur‘onning eng qadimiy qo‘lyozmalaridan biri bilan tanishdi. Bu nodir qo‘lyozmaning Islom dini va jahon madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni alohida e‘tirof etildi.

Shuningdek, Paragvay delegatsiyasi “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinch

Madaniy muloqot va ma‘naviy yaqinlikni mustahkamlash bugungi global sharoitda har qachongidan ham muhimligi alohida ta’kidlandi. Bu davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda muhim omil ekani aytil

O‘zbekistonda tarixiy merosni asrash, o‘rganish va targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarga yuksak baho berildi.

Paragvay yetakchisi, shuningdek, Xalqaro avtomobil federatsiyasi Bosh assambleyasida va federatsiya shafeligida o‘tkaziladigan musobaqalar g‘oliblarini taqdirlash marosimida ishtirok etdi.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santiago Penyaning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Marhabo HOJIAKBAROVA,
O‘ZA muxbirlari

TINCHLIK VA TARAQQIYOTGA ERISHISHDA ILHOM MANBAI



Nuqtayi nazar

Pokistonlik mashhur yozuvchi va jurnalist Muhammad Abbos Xon “O‘zbekiston: Uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti” asarida Prezidentimizning AQSHga 2017-yildagi tashrifi asnosida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqiga to‘xtalar ekan, bunday yozadi: “Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi millionlab musulmonlarning qalbini cheksiz faxr-iftixorga to‘ldirdi. Mamlakat yetakchisi o‘z nutqida jahon hamjamiyatiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb bilishini ta’kidladi: “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosola qila olmaymiz”, dedi u dunyo mamlakatlari rahbarlariga murojaat qilib.



o‘g‘itlari orqali voqif bo‘lmog‘i juda muhim”, deb yozadi Muhammad Abbos Xon.

Noshirlar tomonidan kitob muqovagisa ishlangan kompozitsiya ham o‘ziga xos chuqur ma‘no-mazmunni ifoda etadi. Undagi ramozin kuch olib, yanada yorqin kelajakka qadam qo‘yayotganini ko‘rsatadi. Bu kompozitsiya o‘quvchini o‘tmish bilan kelajak o‘rtasidagi ma‘naviy ko‘prikdan o‘tkazib, yangi O‘zbekistonda boshlanayotgan yangi davr — taraqqiyot, adolat va ma‘rifat davriga ijodkorning ilhomboxsh nafari bilan olib boradi.

Bugun esa Prezidentimiz ana shu tarixiy an‘analar — Ikkinchi Renessansning ilmiy-ma‘rifiy ruhi va Amir Temurning davlatchilik tajribasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini bunoyd etmoqda.

Muhammad Abbos Xonning “O‘zbekiston: Uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti” asarining yana bir muhim jihati shundaki, u urdu tilida yozilgan. Bu esa yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarni o‘rganuvchilar geografiasini yanada kengaytiradi. Zero, bugun urdu tili dunyoda eng ko‘p so‘zlashiladigan tillar ro‘yxatida 10-o‘rinni egallaydi va 231 million kishi ushbu tilda muloqot qiladi.

Bu asar nafaqat O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy taraqqiyotini o‘rganuvchilar, balki barcha kitobxonlar uchun insoniy qadriyatlarini ulug‘lash, tinchlik va taraqqiyotga erishish yo‘lida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.



Bir hudud

“Mahalla yettilligi” yangicha tizimi yurtdoshlarimiz hayotida juda katta ijobiy o‘zgarishlar yasadi.

— Bu tizim asosida turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarimizning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazib, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish borasida juda ko‘p ishlar bajarildi, — deydi Xo‘jayli tumani Shag‘alako‘l mahallasi yoshlar yetakchisi Saparmurot O‘temurotov. — “Besh tashabbus olimpiadasi”da mahallamiz yoshlari faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, joriy yil 9 oy yakuniga ko‘ra, 17 nafar ishsiz yoshga imtiyozli kredit olishiga yordam berildi. Ular tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqda. Prezidentimizning “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida to‘rt nafar yoshga jami 256 million so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarida ish boshladi.

Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida ham qator ishlar bajarilmoqda. Masalan, “Yoshlar daftri” elektron platformasi orqali to‘rt talabaga kontrakt pulining bir qismi, uch nafar yoshga kasb o‘rganishi uchun o‘quv kursi to‘lovi, ikki nafariga davolanish xarajatlari qoplab berildi.

— Xo‘jayli tumani Janqo‘ng‘iroq mahallasida 2022-yildan buyon yoshlar yetakchisi bo‘lib faoliyat yuritib kelyapman. Hududimizda 1172 nafar yosh ro‘yxatga olingan, — deydi Rasul Rejepov. — Mahallamizdagi 23 nafar ishsiz yoshning bandligini ta’minlashga erishdik.

Darhaqiqat, mahallada tadbirkor yoshlar safi kengayib bormoqda. Masalan, yosh oilalardan biri Bekzod Sharifboyev va Farida Nurimbetovaga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko‘mak berildi. Bekzod Sharifboyev qo‘ligul usta. U bozorgir mebel ishlab chiqaradi.

— Umr yo‘ldoshim yasaydigan mebelga xaridor ko‘pligi bois, ustaxonasini kengaytirish zarurati ko‘p o‘ylantirardi. Shu sabab bankdan 100 million so‘m imtiyozli kredit oldik. Buning evaziga ustaxonamni kengaytirdik. Ishlarimiz ancha yengillashdi, — deydi Farida Nurimbetova.

Shu yil 14-fevralda Prezidentimiz yoshlar bilan videoselektor shaklida suhbat o‘tkazgan edi. O‘sha kuni yoshlar hayotida yangi davmi boshlab beradigan uchta muhim qaror qabul qilingandi.

“Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror asosida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilgandi. Tadbirkorligini boshlayotgan va milliy yoki xalqaro C1 darajadagi chet tili sertifikatiga ega yoshlarga chekka hududlarda chet tili qayta tayyorlash kurslarini (repititor) tashkil etish uchun ssuda ko‘rinishida mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Yaratilayotgan ko‘plab imkoniyatlarga yarasha eli uchun jon kuydirib ishlayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Ularning ko‘zida chaqnagan olovni ko‘rib, ko‘nglingiz yorishadi.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni oldidan

AGRAR SOHADAGI ISLOHOTLAR

BOZORDA TO‘KINLIK VA IQTISODIYOTDA
BARQARORLIKNI TA‘MINLAMOQDAIbrohim ABDURAHMONOV,
qishloq xo‘jaligi vaziri

So‘nggi yillarda jahon miqyosida kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘zgarishlar insoniyatni yanada sergaklikka chorlamog‘da. Xususan, global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, dunyo bozorlaridagi beqarorlik va geosiyosiy keskinliklar har bir davlatni o‘z ichki imkoniyatlarini qayta baholash, kelajak uchun mustahkam asos yaratishga undayotir. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalasi bugun faqat iqtisodiy ustuvor yo‘nalish emas, balki milliy barqarorlikning eng asosiy sharti sifatida yana kun tartibiga chiqmog‘da. Ana shunday sharoitda qishloq xo‘jaligi o‘zining ishlab chiqarish tarmog‘i bo‘libgina qolmay, xalq farovonligini belgilaydigan, davlatning uzoq muddatli rivoji uchun asos bo‘ladigan strategik soha sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.



O‘zbekiston uchun esa bu masala yanada o‘ziga xos. Chunki yurtimiz tarixida yerga munosabat, mehnat va hosildorlik madaniyati hamisha jamiyat hayotining o‘zagini tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan izchil islohotlar bugun yangi bosqichga ko‘tarilib, sohaga tamoman boshqacha mazmun kiritib boshladi. Fermerlikni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi davlat siyosatida ustuvor o‘rinni egallamoqda.

Dunyo tajribasi ham bir haqiqatni oydinlashtirmoqda: qaysi davlat agrar sohani rivojlantirsa, iqtisodiy mustaqillik va barqarorlikka yo‘l ochadi. Shu bois, oldimizga qo‘yilgan asosiy maqsad zamonaviy, samarador va innovatsiyaga tayangan qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirishdan iborat. Chunki kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlagan davlatgina o‘z taraqqiyotini ishonchli kafolatlay oladi.

Yakuniga yetayotgan yil qishloq xo‘jaligi sohasining haqiqiy salohiyati namoyon bo‘layotgan, barqaror o‘sish iziga tushayotgan davr sifatida tarixda qolmoqda. Joriy yil qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish qiymati 517,5 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich bir qarashda oddiy tuyulishi mumkin, ammo uning zamirida millionlab qishloq xo‘jaligi xodimlarining mashhaqqatli mehnati, to‘g‘ri yuritilgan siyosat samarasi mujaassam.

Shu kungacha 9,7 million tonnadan ortiq g‘alla va guruh, 19,5 million tonnadan ortiq sabzavot, poliz va kartoshka yetishtirildi, meva va uzum esa 5,4 million tonnaga yetdi. 1 million

industrial zanjirda o‘z o‘rnini topayotganining yaqqol isboti. Natijada eksport darajasi o‘sib, ichki bozorda sifat va raqobat muhiti kuchaymoqda.

Shuningdek, sohada 1,2 millionga yaqin ish o‘rni ochilgani ijtimoiy barqarorlikning eng muhim belgisidir. Chunki qishloqdagi ish o‘rni oila daromadi, yoshlar kelajagi, xalqning munosib hayot kechirishiga ishonchini kafolatlaydi. Demak, qishloq xo‘jaligi endi faqat mahsulot yetishtirish maydoni doirasida cheklangan soha emas, balki oziq-ovqat xavfsizligi, eksport imkoniyati va aholi farovonligini ta‘minlaydigan ulkan strategik tizimga aylanmoqda.

Agrar sohada kechayotgan islohotlar bugun raqamlarda emas, balki yurt taraqqiyotining umumiy manzarasida o‘z aksini topmoqda. 2025-yilda sohaga oid 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani qishloq xo‘jaligi rivoji endi tasodifiy jarayon emas, balki qat‘iy huquqiy asosga ega strategiyali yo‘l ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining joriy yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni oziq-ovqat xavfsizligini davlat siyosatining markaziga chiqarib, uning asosiy yo‘nalishlari, mas‘ul organlar vakolati va oziq-ovqat balansini shakllantirish mexanizmlarini aniq belgilab berdi. Ya‘ni oziq-ovqat xavfsizligi endi nazariy tushuncha emas, balki huquqiy jihatdan mustahkamlangan siyosiy maqsadga aylandi.

Xavf-xatarlar tobora keskinlashib borayotgan bir vaqtda — shu yil 14-aprel kuni “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani agrar soha vakillarining ertangi kunga ishonchini oshiradigan muhim qadam bo‘ldi. Qonunda

sug‘urta mukofotining 50 foizi davlat tomonidan qoplab berilishi fermerning mehnatini xavfdan himoya qilishning yana bir kuchli kafolatidir. Shu maqsadda Qishloq xo‘jaligi sug‘urta jamg‘armasi va Agrar sohani moliyaviy qo‘llab-quvvatlash agentligi tashkil etilmoqda. Natijada subsidiya ajratish jarayoni 4 bosqichdan 2 bosqichga qisqaradi. Bu sohada byurokratiya kamayib, samaradorlik ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Amalga oshirilgan islohotlarning eng yorqin samarasi suv tejovchi texnologiyalarning qo‘llanish ko‘lamini 2,6 million gektarga yetganidir. Faqat 2025-yilning o‘zida 250 ming gektarda tomchilatib sug‘urish va boshqa innovatsion texnologiyalar qo‘llandi. 610 ming gektar yer lazerli texnologiya yordamida tekislab berildi. Natijada 2,5 milliard kub metr suv iqtisod qilindi. Bu raqamlar suv resurslari tobora tanqislashayotgan sharoitda qishloq xo‘jaligining kelajakka tayyorlanayotganini ko‘rsatadi.

Oxirgi uch yilda gumus miqdori past bo‘lgan maydonlarning 2,5 million gektardan 1,5 million gektargacha kamayishi, faqat joriy yilning o‘zida 381 ming gektarda tuproq sifatining yaxshilanishi — yerni tiklash va oziqlantirishga qaratilgan kompleks choralar amal qilayotganidan dalolat.

Shu bilan birga, yer bozorning aktiviga aylantirilishi, huquqlarning ikkinchi darajali ijaraga o‘tkazilishi va joriy yilda 80 ming gektardan ortiq qayta ishlatishga qaytarilgan yerlar — resurslar endi qiymatsiz emas, balki boshqaruv talabi va bozor qonuniyatlariga javob beradigan iqtisodiy aktivga aylanayotganini anglatadi.

“

**YANGI O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI
BUGUN GLOBAL XAVF-XATARLAR
KUCHAYIB BORAYOTGAN DAVRDA BIR
HAQIQATNI TASDIQLAMOQDA: OZIQ-
OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLAGAN,
YER VA SUVNING QADRINI BILGAN,
INNOVATSIYA VA ILM-FANGA TAYANGAN
MILLATNING KELAJAGI YORUG‘ BO‘LADI.**

Yana bir muhim jihat: oxirgi 3 yilda agrar soha va oziq-ovqat ishlab chiqarish jabhasiga 5,7 milliard dollarlik xorijiy investitsiya kirib keldi. Bu esa sohaga ishonch, bozorning ochiqligi va rivojlanish salohiyatining jahon miqyosida yuqori baholanayotganini ko‘rsatadi.

Iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq xavf-xatarlarga qarshi samarali choralar ko‘rish maqsadida 2025-yilda ikkita katta milliy dastur qabul qilindi. Ushbu dasturlar doirasida Orolbo‘yi hududi hamda qishloq xo‘jaligi sohasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq loyihalar uchun 294 million dollar yo‘naltirildi. Bu ko‘rsatkich nafaqat iqtisodiy investitsiya, balki barqarorlik va kelajakka hozirlik sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish va xalqaro moliya institutlari mablag‘larini samarali jalb qilish maqsadida lizing xizmatlarini moliyalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim orqali xalqaro moliya institutlari ajratgan 200 million dollar lizing xizmatiga yo‘naltirildi. Bu esa fermer va dehqonlar uchun zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalarini yetkazib berish imkonini yaratdi. Natijada umumiy qiymati 6 trillion so‘mdan ortiq 11 mingdan ziyod texnika

va agregatlar qishloq xo‘jaligi subyektlariga yetkazib berildi.

Ilm-fan yutuqlari va ilg‘or xalqaro tajribalarning keng joriy qilinishi bugun qishloq xo‘jaligini samaradorlik nuqtayi nazaridan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Joriy yilda 875 ming gektar maydonga chigit ekilib, 4 million tonna hosil olindi. Shuningdek, respublika bo‘yicha 181 ming gektar maydonda Shinjon tajribasi asosida chigit ekish va tomchilatib sug‘urish texnologiyasi qo‘llandi.

Mexanizatsiyani kengaytirishga ham alohida e‘tibor qaratildi: 170 million dollardan ortiq

qilindi. Bu maydonlarni modernizatsiya qilish, resurslardan to‘liq foydalanish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan murakkab, ammo zarur choralarand biridir.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qo‘shilgan qiymat yaratish maqsadida so‘nggi yillarda 1500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi. Natijada meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 15,3 foiz, go‘shida — 16 foiz, sut mahsulotlarida esa 22 foizga yetkazildi.

Mahsulotlarimiz tabiiy va mazali bo‘lgani uchun xalqaro bozorlarda alohida qadr-qimmatga ega. Yurtimiz brendi — “O‘zbekistonda



Rashid GALIYEV o‘lgan suratlar.

yetishtirilgan” degan nom eksportyorlar uchun nafaqat imij, balki yuqori sifat va xavfsizlik ramziga aylandi. Ayniqsa, quritilgan olxo‘ri va o‘rik, shaftoli, mayiz, gilos va dukkakli mahsulotlar eksporti bo‘yicha mamlakatimiz yuqori o‘rinlarni egallab, xalqaro bozorda raqobatbardoshligini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, qayta ishlangan meva konsentratlari hamda yangi turdagi shok va sublimatsiya qilingan mahsulotlar xalqaro bozorlarda e‘tirof etilmog‘da.

Joriy yilda eksport geografiasini sezilarli darajada kengayib, mahsulotlar 93 davlatga jo‘natildi va umumiy eksport qiymati 3 milliard dollarni tashkil etdi. Shuningdek, 70 dan ortiq mahalliy eksportyor Xitoyning maxsus eksport reyestriga kiritildi. Bu yil 8 davlatga 36 xil mahsulot uchun fitosanitar ruxsatnomasi olindi. Umumiy hisobda bu ko‘rsatkich 646 taga yetkazildi. Mazkur raqamlar nafaqat eksport hajmini oshirish, balki mahsulot sifati va xavfsizligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo‘lidagi tizimli islohotlar samara berayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, joriy yilda qariyb 2,5 milliard dollarlik qishloq xo‘jaligi va 1 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham keng ko‘lamli va samarali ishlar bajarildi. Paxta yetishtiruvchilar qishloq xo‘jaligi va 1 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham keng ko‘lamli va samarali ishlar bajarildi. Paxta yetishtiruvchilar qishloq xo‘jaligi va 1 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham keng ko‘lamli va samarali ishlar bajarildi. Paxta yetishtiruvchilar qishloq xo‘jaligi va 1 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi.

korxonalari uchun esa eng asosiy iqtisodiy kafolat bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari, paxta va g‘allachilikdan tashqari qo‘shilgan qiymat solig‘i “nol” qiymatda belgilandi. Shuningdek, paxtachilikda subsidiya va kreditlarning bir qismini qoplab berishning yangi mexanizmlari qo‘llandi. Bu raqamlar davlatning agrar sektorni qo‘llab-quvvatlash va modernizatsiya qilishga qaratilgan samarali siyosati natijasidir.

Issiqxonalar sohasida ham qator strategik chora-tadbirlar ko‘rildi. Soliq qazrlari to‘lovi 2028-yil yakunigacha uziytirilib, keyingi yillarda — 2029-yilning har choragida to‘lash tizimi joriy etildi. Bu chora fermer va issiqxona sohiblarining moliyaviy yukini yumshatib, mahsulot yetishtirishni barqarorlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil yakunigacha ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanishi sohadaagi barqarorlik va investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim qadam bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 17 trillion so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Bu mablag‘ fermerlarning ishlab chiqarish quvvatini kengaytirib, innovatsion texnologiyalar va samarali agrotehnika joriy etish uchun ham asosiy kapital sifatida xizmat qilmoqda.

Hududlarda agrolgistika va sovitkichli ombor infratuzilmasini rivojlantirishda ham salmoqli ishlar qilindi. Joriy yilda 145 ming tonna quvvatga ega 10 ta agrolgistika markazi hamda 45 ming tonna quvvatdagi 76 ta sovitkichli ombor ishga tushirildi. Shu bilan umumiy agrolgistika quvvati 1 million 442 ming tonnaga, sovitkichlik quvvati esa 1 million 380 ming tonnaga yetkazildi. Bu mahsulotlarning uzluksiz va sifati yetkazib berilishini ta‘minlab, yetishtirishdan bozorgacha bo‘lgan zanjirda samaradorlikni oshiradi.

Chorvachilik sohasida ham strategik o‘zgarishlar sezilarli darajada. Mahsulorlikni oshirish maqsadida aholi va fermer xo‘jaliklaridagi 2,5 million bosh sigir va tanalar sun‘iy urug‘lantirildi. Shuningdek, naschilik subyektlari tomonidan 22 ming bosh qoramol, 36 ming bosh nasli qo‘y va echki aholiga yetkazib berildi. Chet eldan esa 180 ming bosh qoramol va 140 ming bosh qo‘y-echki olib kelindi. Ko‘rilgan bu choralar chorvachilik mahsulorligini oshirish barobarida milliy genetik zaxirani mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan.

Agrar sohani raqamlashtirishda ham katta natijalarga erishildi. 2021-2025-yillarda 20 dan ortiq axborot tizimi ishlab chiqildi. Xususan, 2025-yilda “AgroMonitoring”, “AgroTarozi”, “Hosil qabuli”, “AgroDoks” va “E-urug‘” axborot tizimlari keng joriy qilindi. Ayniqsa, “Hosil qabuli” tizimi orqali paxta hajmi onlayn, shaffof ravishda shakllantirila boshladi.

Xizmatlarni raqamlashtirish orqali masofadan turib ham fermerlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratildi. Bu zamonaviy agrotehnika va raqamli yechimlar orqali soha samaradorligini sezilarli darajada oshirish, resurslarni tejash va biznes jarayonlarini soddalashtirish imkonini berdi.

Yangi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi bugun global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan davrda bir haqiqatni tasdiqlamoqda: oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlagan, yer va suvning qadrini bilgan, innovatsiya va ilm-fanga tayangan millatning kelajagi yorug‘ bo‘ladi. Mamlakatimizdagi har bir islohot, qabul qilinayotgan har bir qonun, joriy etilayotgan har bir texnologiya — kelajak avlodning tinchligi, dasturxonini to‘kinligi va Vatanimiz mustaqilligini kafolatlashga qaratilgan milliy siyosatning mantiqiy davomidir.

Islohotlar natijasi faqat bugunni emas, balki ertani ham nazarda tutmoqda. Shu ma‘noda, qishloq xo‘jaligidagi bugungi islohotlar ertangi yuksak maqsadlarga yetish uchun qo‘yilgan mustahkam poydevor, yurtimizning strategik yo‘lini belgilab beradigan ulkan tajriba, xalqimizning mehnati va irodasidan yana bir buyuk ifodasidir.



tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi. Ushbu ko‘rsatkich aholining sifatli oziq-ovqatga ehtiyojini qoplash, ichki bozordagi narxlar barqarorligini mustahkamlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim zamin hozirlaydi.

Chorvachilikda 3 million tonnadan ortiq go‘sh va 13 million tonna sut olingani aholining kundalik ehtiyoji, sog‘lom turmush tarzi va proteinga ehtiyojini qoplaydi. Bu yil 30 ming tonna pilla yig‘ib olingani ortidan qishloq joylardagi yuz minglab oilalarga qut-baraka kirib bordi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish ko‘rsatkichi 142,2 trillion so‘mga yetdi hamda 107 foizlik o‘sishga erishildi. Bu — qishloqda yetishtirilgan har bir xomashyoning qiymati qayta ishlash orqali bir necha barobar ortib,

sug‘urta faoliyatining huquqiy asoslari, xavf-xatarlarida ko‘riladigan choralar, zararni qoplash tartiblari va maxsus jamg‘armaning faoliyati belgilab berildi. Bu tizim fermer va dehqonlar mehnatini bozor xatarlaridan himoya qilib, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanish yo‘liga olib chiqadi.

Bundan tashqari, bu yil “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi qonun ham qabul qilindi. U fermer va dehqonlarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda yangi imkoniyatlar ochdi. Birlashgan mehnat, umumiy infratuzilma va birgalikdagi manfaatlar tamoyili qishloq xo‘jaligini yangi iqtisodiy madaniyatga yetaklamog‘da.

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirilariga qarshi kurashish maqsadida hosil sug‘urtasi mexanizmining joriy qilinishi va 2026-yildan



Munosabat

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
fraksiya rahbari

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri. Uning barqaror rivojlanishi mamlakatimiz eksport salohiyati, aholi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki sanoat tarmoqlari uchun xomashyo manbai sifatida ham alohida o'rin tutadi.



kinga qaram bo'lmagan holda erkin faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo'ldi.

“Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida”gi qonun bilan mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sug'urtalash tizimi joriy etilib, mahsulot yetishtiruvchilarga qulay shart-sharoitlar, qishloq xo'jaligi ekinlariga xavf-xatarlar tufayli zarar yetgan hollarda ziyonning o'rini qoplashning huquqiy mexanizmi yaratildi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham qishloq xo'jaligi bo'yicha muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, bir gektardan olinadigan o'rta daromadni 5 ming dollarga, qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiya jalb qilish, hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rta 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha esa 80-85 sentnerga yetkazish maqsad qilingan.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi islohotlar bugun yuksak samara bermoqda. Yer haqiqiy egasini topib, fermer xo'jaliklari



intensiv bog'lar 150 ming gektarga yetkazildi. Shubhasiz, natijalar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor,

so'm beriladi. Bu, shubhasiz, fermerlarning mas'uliyati va moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Kelgusi yil 800 ta terim mashinasi, 450 ta ko'p funksiyali seyalka va plyonka yig'adigan 3 ming dona mashina olib kelinishi esa paxtachilikda mexanizatsiya darajasini oshiradi. Bu hosildorlik va samaradorlikni, mehnat resurslariga bosim kamayishini, terim va agrotexnik jarayonlarning tezkor va sifatli bajarilishini ta'minlaydi. Eng muhimi, bu texnika parki qishloq xo'jaligida qo'l mehnatiga bo'lgan ehtiyojni qisqartirib, tezkorlikni oshiradi. Umuman aytganda, mazkur tashabbus paxtachilikni zamonaviy va kam mehnat talab qiladigan tarzda rivojlantirishda strategik qadamdir.

G'allachilikda ham sho'r, suvsizlik va issiqqa chidamli yangi navlarni yaratish borasidagi izlanishlar yanada kuchaytirilib, o'z mablag'i hisobidan g'alla yetishtirgan fermerlarga paxtadagi kabi hosilining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratilishi ko'plab fermerlarimizning ayni dildagi gap bo'lib, ularni yangi marralar sari ruhlantirgani rost. Chunki ilgari bunday imkoniyatlar bo'lmagan. Soha vakillarini o'ylantirayotgan masalalarga hech kim qiziqmagan, ularning dardini eshitmagan.

Yangi bog' va tokzorlar yaratish, eskilarini yangilash bo'yicha uch yillik dastur qabul qilinishi qishloq xo'jaligining meva va uzumchilik yo'nalishi rivojiga qaratilgan muhim tashabbusdir. Ushbu dastur eski maydonlarni jadal rekonstruksiya qilish, yuqori hosilli, eksportbop, kasallikka chidamli navlar bilan almashtirishni nazarda tutib, bu kam yerdan ko'p hosil olish imkonini yaratadi. Qishloq xo'jaligi samaradorligini, eksportni ko'paytirish va aholi daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Endilikda intensiv bog' tashkil qilish uchun 7 yilga 3 yillik imtiyozli davr bilan 14 foizli kredit berilishi, muzlatkichli ombor uchun kredit foizining asosiy stavkadan oshgan 8 foizgacha qismi qoplanishi, sabzavot eksportchilari va bog'bonlarga qadoqlash xarajatining 50 foizi kompensatsiya qilinishi juda to'g'ri va oqilona qaror sifatida soha vakillari uchun chinakamiga katta imkoniyat va rag'bat bo'ladi.

Yana bir muhim masala. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi global miqyosda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Inflyatsiya, iqlim o'zgarishi va geosiyosiy mojaralar oqibatida dunyo aholisining katta qismi oziq-ovqat mahsulotlariga yetarli darajada ega emas. Bunday vaziyatda ushbu muammoning turli jihatlari, jumladan, narx oshishi, resurs yetishmasligi va boshqa holatlarning oldini olish zarur.

O'zbekiston uchun ham oziq-ovqat xavfsizligi strategik masala bo'lib, so'nggi yillarda ayni yo'nalishda qator islohotlar amalga oshirildi. Uchrashuvda ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, hozirgi tez o'zgaruvchan sharoitda bozorlardagi narx-navzo barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash doimiy diqqat markazida bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Kuz-qish uchun asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari xazira qilinayotgani, endi bu ishni yil davomida amalga oshirib, narxlar barqarorligini ta'minlash uchun doimiy intervensiya tizimi joriy etilishi ayni muddao bo'ldi. Chunki oziq-ovqat xavfsizligi har bir insonning sog'lig'i va farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Bu boradagi tizimli ishlar bozorlarni sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar agar tarmoqda yangi davrni boshlab beradi. Intensiv agrotexnologiyalar, iqtisodiy rag'bat, ilmiy seleksiya, kadrlar tayyorlash va mexanizatsiyani qamrab olgan kompleks yondashuv sohadagi muammolarni tizimli hal qilishga, hosildorlikni oshirish va fermerlarning daromadini ko'paytirishga xizmat qiladi. Pirovardida esa aholi farovonligi, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanib, yangi ish o'rinlari yaratiladi, odamlarning turmush sharoiti yanada yaxshilanadi.

BILIM VA INNOVATSIYAGA ASOSLANGAN DEHQONCHILIK YUQORI HOSILDORLIK VA SAMARADORLIK GAROVI



Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, yer resurslari kamayishi, aholi soni ortishi kabi omillar qishloq xo'jaligi oldiga yangi vazifalar qo'yimoqda. Shu bois, ushbu tarmoqda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy agrotexnologiyalar va samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish har qachongidan ham muhim.

Mamlakatimizda esa so'nggi yillarda agrar tarmoqni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar uning rivojiga yangi sur'at bermoqda. Raqamli texnologiyalar, ekologik yondashuvlar va biotexnologiyalardan samarali foydalanish orqali fermer xo'jaliklari yuqori samaradorlikka erishmoqda.

Sohaga doir qabul qilingan “Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida”gi, “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi, “Tomorqa xo'jaligi to'g'risida”gi, “O'simliklarni himoya qilish to'g'risida”gi va boshqa qator qonunlar esa barqaror rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Birgina “Tomorqa xo'jaligi to'g'risida”gi qonun bilan tomorqa xo'jaliklarini yuritishni tashkil etish va ularni rivojlantirish sohasidagi munosabatlari tartibga solindi. Xususan, mazkur hujjatda shaxsiy tomorqa yer uchastkalaridan tomorqa xo'jaligini yuritish uchun foydalanuvchi shaxslarning huquq va

majburiyatlari, tomorqa xo'jaliklarini yuritishni tashkil etish hamda ularni rivojlantirish sohasida respublika ijro etuvchi hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlarining vazifalari belgilab qo'yildi.

“Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi qonun bilan esa dehqon xo'jaliklariga ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Bunday sharoitlar ilgari dehqonlar, qishloq xo'jaligi yerlari egalari uchun faqat orzu bo'lgan. Bugun esa ularda yangi O'zbekistonda yaratilayotgan ana shunday ko'plab imtiyozlardan unumli foydalanib, o'z dehqon xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, hech

paxta va g'alla yetishtirishda salmoqli natijaga erishmoqda. Masalan, joriy yilda paxtachilikda mirdosh dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar yerda 4 million tonna xirmon yaratildi, ilk bor paxtada o'rta hosildorlik 46 sentnerga yetdi.

G'allakorlarimiz esa bu yil 8 million 400 ming tonna xirmon yaratdi. O'rta hosildorlik 85 sentner bo'ldi. Sholiklarimiz ham joriy yil 268 ming gektarda sholi ekib, 1 million 340 ming tonna hosil olgan bo'lsa, o'rta hosildorlik 50 sentnerga yetdi. Eng muhimi, uch yilda 155 ming gektar bog' va uzumzor barpo etilib,

fermerlarimiz uchun yaratib berilayotgan zarur shart-sharoitlar samarasidir.

Agrar tarmoqni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil islohotlar natijasida yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foiz o'sib, 3 milliard dollarga yetdi. Yil yakuni bilan bu ko'rsatkich ilk bor 3,2 milliard dollardan oshishi kutilyapti. E'tiborlisi, meva-sabzavotlarimiz kirib borgan davlatlarning soni 18 taga ko'payib, 83 taga yetdi.

Prezidentimiz Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni soha vakillari bilan uchrashuvda erishilgan natijalarni alohida e'tirof etib, kelgusi yil uchun soha oldida turgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Uchrashuvda yangi agrotexnologiya yordamida 76 sxema bo'yicha paxta yetishtirish kelgusi yilda ommalashtirilib, 891 ming gektarda to'liq shu sxema bo'yicha paxta yetishtirilishi, ko'sak qurti, gerbitsid, sho'r va suvsizlikka chidamli xorijiy navlar ekiladigan maydonlar 2 karra ko'paytirilib, 500 ming gektarga olib chiqilishi urg'ulandi.

“Shinjon tajribasi” asosida 300 ming gektarga chigit ekilsa, buning uchun dalalarda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etishga 2 trillion 600 milliard so'm imtiyozli kredit ajratiladi. Asosiysi, o'z mablag'idan paxta yetishtirgan fermerlarga hosilning 10 foizigacha qismini subsidiyalashga 250 milliard

So'nggi yillarda ilm-fan va seleksiya sohasiga qaratilgan e'tibor ham kuchaytirilmoqda. Ilmiy markazlarda 56 ta mahalliy navni xorijiy navlar bilan seleksiya qilish hisobiga urg'uchilik bazasi qurilgan. Genomika va Paxtachilik ilmiy institutlariga zamonaviy fitotron va issiqxona qurib berilmoqda. Bu esa mahalliy iqlimga mos, yuqori hosilli va kasallikka chidamli navlar yaratishni jadalashtiradi.

Agrar sohada kadrlar salohiyatini oshirish ham asosiy vazifalardan biriga aylangan. Agrar universitetning 180 nafar talabasi dual ta'lim asosida ilg'or klaster va fermer xo'jaliklarida amaliyot o'taydi. Talabalarni o'qitgan fermerlar va klasterlarga 5 million so'mdan, talabalarning o'ziga esa 1,5 million so'mdan stipendiya to'lanadi. Zamonaviy agronomlik ko'nikmasini mukammal o'zlashtirgan yosh mutaxassislarga oylik rag'bat sifatida 2 ming dollar to'lanishi belgilanmoqda. Bu tashabbuslar sohada malakali kadrlar tanqisligini bartaraf etishga qaratilgani bilan e'tiborga molik.

Paxtachilik — O'zbekiston xalq xo'jaligining muhim sohasi. Tarmoq ko'plab ish joylarini yuzaga keltiradi, valyuta tushumini ta'minlaydi. Qolaversa, sanoatning to'qimachilik, oziq-ovqat, kimyo, avtomobilsozlik, qog'oz ishlab chiqarish, tibbiyot, qurilish, mebelsozlik yo'nalishlari rivoji ham paxtachilik bilan bevosita bog'liq.

Kun mavzusi



Xususan, joriy yil boshida ayni shu sohaga bag'ishlangan yig'ilishda 2025-yilda eksport hajmini 30 milliard dollardan oshirishi belgilangan edi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 29 milliard dollarni tashkil etgan. Bu o'tgan yilning mos davridagidan 27,8 foiz yuqori demakdir. Raqamlardan ham yil so'ngiga qadar belgilangan marra, albatta, zabt etilishini anglash mumkin.

Shu yil 1-dekabr kuni Prezidentimiz eksport salohiyatini oshirish va tadbirkorlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini soddalashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishar ekan, ushbu yo'nalishda O'zbekistonning yanada balandroq qo'yilgan maqsadi — 2030-yilga qadar eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish borasida so'z bordi. Buning uchun an'anaviy bozorlar bilan cheklanmasdan, yuqori marjali yangi bozorlarga chiqish zarurligi qayd etildi. Eksport salohiyatini yanada yuksaltirish uchun hayotga tatbiq etilishi kerak bo'lgan yangi tashabbus va loyihalar, samaradorligi yuqori mexanizmlar muhokama qilindi.

Ha, bu masala bugunning jiddiy muammosi. Chunki keyingi yillarda turli mintaqalarda transchegaraviy nizolar ko'payishi, dunyo

MAQSAD ANIQ, MARRA YAQIN, QADAMLARIMIZ SOBIT

Iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy omillardan biri eksport salohiyati, chet el valyutasini jalb qilishdagi bosh unsurlardan biri esa xalqaro savdo-sotiq tizimidir. Shu bois, mamlakatimizda bu tarmoq rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

siyosatida muvozanat buzilishi, rivojlangan davlatlar o'rtaqidagi kelishmovchiliklar hamda zamon shiddat bilan o'zgarib borayotgani iqtisodiy beqarorlikni yuzaga keltirmoqda. Bu esa to'laqonli eksport salohiyatini yuzaga chiqarishga to'sqinlik qilyapti. Shu yilning aprel oyida BM'Tning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) “2025 — savdo va rivojlanish prognozlar: Bosim ostida — noaniqlik global iqtisodiy taxminlarni qayta shakllantiradi” nomli hisobotini e'lon qilgandi. Unda shu yil dunyo iqtisodiyotida 2,3 foiz pasayish kuzatilishi taxmin qilinayotgani keltirilgandi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy jihatdan ayni shunday murakkab pasayish yilini boshdan o'tkazayotgan bir davrda O'zbekiston nafaqat iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolayotgani, balki turli jabhalarda yuksalishga erishayotgani juda quvonarlari.

Vaholanki, yurtimiz arzon dengiz yo'llariga tutash bo'lmagan Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgani ham O'zbekistonning eksport salohiyatiga jiddiy to'siq hisoblanadi. Transport xarajatlari kattaligi va tranzit tizimi beqarorligi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning ikki foizigacha qismini yo'qotayotgani, logistika xarajatlari mahsulotlar umumiy narxida 60 foizgacha yetayotgani, bu



raqam jahondagi o'rta ko'rsatkichlardan bir necha barobar yuqori ekanini real fakt. Qolaversa, eng yaqin dengiz portlaridan salkam 3 ming kilometr uzoqlikda joylashgan, unga chiqish uchun bir necha davlatlar hududini bosib o'tishi kerak bo'lgan O'zbekiston bundan eng ko'p zarar ko'rmoqda.

davlatimizda oqilona siyosat yuritilayotgani, to'g'ri iqtisodiy o'sish yo'lidan borilayotganini ko'rsatadi.

Xususan, davlatimiz rahbari sa'y-harakati bilan qo'shni mamlakatlar, Fransiya, Xitoy, AQSH singari rivojlangan, Turkiya, Pokiston, Hindistondak yuqori salohiyatli davlatlar bilan o'zaro manfaatli, do'stona aloqalar o'rnatilgani savdo-sotiq, eksport salohiyatimizning yanada o'rta shiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz tashrif bilan qaysi davlatga bormasin, savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadigan ikki tomonlama manfaatli kelishuv va shartnomalar imzolab kelmoqda. Uzoqqa bormaylik, 4-7-noyabr kunlari AQSHga tashrif doirasida turli sohalar bo'yicha 100 milliard dollarlik kelishuvga erishildi.

Bugun O'zbekiston jahonning 210 ta davlati bilan savdo aloqalariga ega ekanini ham bu borada keyingi yillarda katta yutuqlarga erishayotganimizdan dalolat beradi.

Ammo biz bu yutuqlardan xotirjamlikka berilmay, islohotlar o'tkazish, tashabbus va yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishimiz zarur. Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirish borasida hali qilinishi zarur bo'lgan ishlar talaygina. Bu taqdimotda soha xodimlariga belgilab berilgan ustuvor vazifalardan ham ma'lum.

Jumladan, yig'ilishda mahsulotni sertifikatlash jarayonida va eksportyor tadbirkorlarga ko'rsatiladigan boshqa davlat xizmatlarida qog'ozbozlik ko'p ekanini, ular davlat idoralarda eshikma-eshik yurib, hujjat yig'ishga ko'p vaqtini sarflayotgani tanqid ostiga olindi.

Bu jihat tadbirkorlarni asl vazifasi — sifatli mahsulot tayyorlash va unga ziyor yetkazmagan holda xorijiy mamlakatlardagi iste'molchilarga yetkazib berishdan chalg'itmoqda. Bugungi kunda 81 ta davlat idorasi tomonidan tadbirkorlarga 739 turdagi xizmat ko'rsatilmoqda. Lekin 576 turdagi xizmat tarqoq holda ko'rsatilishi,

masalan, go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun 17 ta bosqichdan o'tish, 10 ta idoraga borish kerak ekanini fikrimizni isbotlaydi.

Shuningdek, buxgalteriya, soliq, eksport va sertifikatlash bo'yicha konsalting xizmati ko'rsatadigan yagona xususiy servis maydoni mavjud emas. Yig'ilishda bu muammoning yechimi sifatida yangicha mexanizm — tadbirkorlar uchun barcha davlat va xususiy xizmatlarni bir joyga jamlaydigan “Biznes hamroh” markazlarini ochish taklif qilindi. Savdo-sanoat palatasi huzurida tashkil etiladigan markazlarda barcha davlat va xususiy xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida bir joyda, yagona elektron platforma orqali ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, tunu kun tadbirkorlarning murojaatlariga javob beradigan “koll-markaz” ishga tushirilishi muammolarga tez yechim topishga xizmat qiladi.

Ushbu markazlar tadbirkorlik subyektni tashkil etishdan tortib, faoliyatini yo'lga qo'yish, tayyor mahsulotlarni sotish va eksport qilishgacha bo'lgan barcha sohalarni qamrab oladi. Bu esa tom ma'noda tadbirkorlarning ishbiaronlik faoliyatida eng yaqin ko'makchiga aylanishi kutilmoqda.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarning yakunini bosqichi kecyapti. 2026-yil mart oyida ushbu tashkilotga kirishni reja qilgan O'zbekiston uchun eksport tizimida bunday islohotlarni amalga oshirishning ahamiyati katta. Boisi, JSTGa a'zo bo'lish O'zbekistonga jahon bozorida o'rinni yanada mustahkamlash, savdo uchun yangi uflar ochishga zamin yaratadi. Bu paytga qadar esa eksport sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishimiz zarur. Zero, ayni yo'nalishda maqsadli aniq, maramiz yaqin, qadamlarimiz sobitdir.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Bugunning gapi

SUN'YI INTELEKT

ILMIY SALOHIYAT VA ISH USLUBINI YUKSALTIRISHDA UNING AHAMIYATI KATTA



Yuliya RISYUKOVA,
Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi direktori

Yangi ming yillikda raqamli texnologiyalar rivoji insoniyat taraqqiyoti uchun shiddatli burilish nuqtasini vujudga keltirdi. Xususan, bugun sun'iy intellekt shunchaki virtual yordamchi vosita maqomidan chiqib, global iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forumdagi tarixiy nutqida ta'kidlaganidek, ushbu texnologiya endilikda hayotiy zarurata aylanib ulgirdi. Davlatimiz rahbari tomonidan e'lon qilingan "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi hamda sohani 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbuslar O'zbekiston ta'lim tizimi oldiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ymoqda.

Jumladan, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi jamoasi oldida quyidagi ustuvor vazifalar turibdi:

— ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash hamda monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish;

— ta'lim tashkilotlarida o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr qilish, tajribasinovaldan o'tkazish hamda ekspertiza qilishni tashkillashtirish;

— ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, ta'lim jarayonida jahon ilm-fani va texnologiyalari

yutuqlaridan keng foydalanish bo'yicha ilmiy ishlarni va tavsiyalar tayyorlash;

— ta'lim sohasidagi ilg'or amaliyotni o'rganish va tizimli tahlil qilish hamda uni respublikada joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantirish. Bular aynan ushbu innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

GLOBAL TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, AQSH, Finlyandiya va BAAda sun'iy intellekt, asosan, uchta strategik yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan o'zgartirayotgani ayon bo'ladi. UNESCOning so'nggi yillardagi sun'iy intellekt dan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha tadqiqotlari natijalari ta'limni shaxsga yo'naltirish, boshqaruvni optimallashtirish va o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha bunday texnologiyalarning imkoniyatlari keng ekanini ko'rsatmoqda.

Bu jarayon, birinchi navbatda, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga namoyon bo'ladi. Jahon tajribasida an'anaviy "bir o'lcham hammaga mos" yondashuvi dolzarbligini yo'qotmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilar bilim darajasini real vaqt rejimida baholab, o'zlashtirish samaradorligini 20-30 foizgacha oshiryapti. Masalan, Xitoyda joriy etilgan "Squirrel AI Learning" tizimi orqali o'quvchilar uchun individual dasturlar tuzilishi natijasida test ballari 25 foizgacha ko'tarilgan qayd etilgan. Singapur va AQSHdagi ta'lim tizimlarida joriy qilingan adaptiv "aqlli" platformalar



esa o'quvchilar ehtiyojlarini, qiziqishlarini va o'zlashtirish sur'atini onlayn tahlil qilish orqali har bir o'quvchi uchun individual ta'lim trayektoriyasini yaratadi.

Hindistonning "Swift eLearning Services" kompaniyasi tajribasida sun'iy intellekt o'quvchining qachon va nima sababdan o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelishini oldindan aniqlab, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'yicha yechimlar taklif etishi isbotlangan. Bu texnologiyalar o'quvchining bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, o'zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi.

Ikkinchi muhim yo'nalish ma'lumotlarga asoslangan (Big Data) boshqaruvdir. Ta'lim jarayonida yig'iladigan katta hajmdagi



“

“Brookings Institution” va “EdTech Hub” tahlillariga ko'ra, sun'iy intellekt yordamida maktablarda dars qoldirishlarni aniqlash aniqligi 85 foizgacha oshadi. O'zlashtirishda ortda qolayotgan o'quvchilarni aniqlash vaqti esa 5 barobar tezlashadi.

ma'lumotlar tahlili strategik qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. AQSH, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlarda sun'iy intellekt vositalari o'quvchilar davomati va darsdagi faolligini real vaqt rejimida monitoring qilishda keng qo'llaniladi.

“Brookings Institution” va “EdTech Hub” tahlillariga ko'ra, sun'iy intellekt yordamida maktablarda dars qoldirishlarni aniqlash aniqligi 85 foizgacha oshadi. O'zlashtirishda ortda qolayotgan o'quvchilarni aniqlash vaqti esa 5 barobar tezlashadi. Bu texnologiyalar maktab ma'muriyatiga o'quvchilarni qabul qilish, dars jadvallarini optimallashtirish va resurslarni to'g'ri taqsimlashga ko'maklashadi.

Uchinchi yo'nalish esa o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish va jarayonlarni avtomatlashtirishdan iborat. Xalqaro boshqaruv sohasi bo'yicha yetakchi tashkilotlardan biri

— “McKinsey” kompaniyasi tahlili sun'iy intellekt bilim va ko'nikmalarni baholovchi testlarni tuzish vaqtini 50-80 foiz, dars rejalarni tayyorlashni esa 30-60 foiz qisqartirishini ko'rsatgan. Masalan, AQSHda qo'llanilayotgan “Khanmigo” tizimi o'qituvchining haftalik yuklamasini 3-5 soat kamaytirgani tajribada isbotlangan.

O'qituvchilarni kundalik ma'muriy yuklamadan ozod qilish sun'iy intellektning eng katta yutuqlaridan biridir. “Siri”, “Alexa”, “Ada” va “Deakin Genie” kabi chat-botlar ta'limga 24/7 rejimida o'quvchilarning savollarga javob berib, ularning vaqtini tejamoqda. AQSH Ta'lim vazirligi hisobotiga ko'ra, sun'iy intellekt o'qituvchilarga o'z ishlarni saralash, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga yordam berish va resurslarni moslashtirishda asosiy vositaga aylanmoqda.

YANGI STRATEGIK YO'NALISH

Xalqaro ilg'or tajribalar va global tendensiyalarni chuqur tahlil qilgan holda O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellektni joriy etishning o'ziga xos milliy modeli

shakllantirilmoqda. Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi sohani kompleks rivojlantirishning 11 ta ustuvor yo'nalishini belgilab olgan bo'lib, ular qatoriga raqamli ta'lim resurslarini yaratish, baholash tizimini avtomatlashtirish, kasbga yo'naltirish va inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash kiradi. Ayniqsa, ta'lim tizimini boshqarishda ma'lumotlar tahliliga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmini yo'lga qo'yish resurslarni to'g'ri taqsimlash va strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu jarayondagi eng yirik va innovatsion tashabbuslardan biri “Virtual metodist” platformasidir. Mazkur loyiha respublika miqyosida yiliga minglab o'qituvchiga o'z ustida mustaqil ishlash imkonini beradi. Ushbu platforma shunchaki oddiy vosita emas, balki “pedagogning raqamli egizagi” tamoyili asosida ishlaydigan intellektual tizimdir. U o'qituvchining fani, tajribasi, sinfning o'zlashtirish darajasi va dars maqsadlarini tahlil qilib, milliy ta'lim standartlariga to'liq mos keladigan dars ishlarni hamda metodik tavsiyalarni avtomatik taqdim etishni qo'llab-quvvatlaydi.

Platforma dars jarayoni uchun zarur bo'lgan multimedialiy resurslar, taqdimotlar va fanlarga oid bilimlarni baholovchi testlarni bir zunda tayyorlab berish orqali metodik qo'llanmalar ishlab chiqish xarajatlarini 40-60 foiz optimallashtiradi. Agar ushbu tizimdan pedagoglarning kamida 20 foizi foydalansa, taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, kuniga 400-600 mingta metodik tavsiya yaratib, ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tarilishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

ETIKA VA XAVFSIZLIK MASALASI

Ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelishi nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki jiddiy axloqiy mas'uliyatni ham kun tartibiga qo'yarmoqda. Shu bois, markazimiz faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish etikasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizning yondashuvimizga ko'ra, har qanday ilg'or texnologiya, eng avvalo, “raqamli fuqarolik” tamoyillariga asoslanishi va inson manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Bu jarayonda eng ustuvor vazifa ta'lim oluvchilar va pedagoglarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlashdir. O'quvchilarning baholari, xulq-atvori yoki o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qiluvchi har qanday intellektual tizim ma'lumotlar maxfiyligi standartlariga qat'i rioya qilishi, ularni ruxsatsiz tarqatishdan himoyalashi lozim. Bunda o'qituvchilar va ota-onalar sun'iy intellekt qanday qaror qabul qilayotgani, qaysi ma'lumotlarni tahlil qilayotgani va bu xulosalar nimalarga asoslanganini aniq bilish huquqiga ega.

Yana bir muhim jihat, algoritmik adolatni ta'minlashdir. Sun'iy intellekt algoritmlaridagi ehtimoliy xatoliklar yoki noxolisliklar ta'lim oluvchilar imkoniyatini cheklab qo'ymasligi, ularni noto'g'ri baholamasligi kerak. Bu yondashuv UNESCOning sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalariga hamda xalqaro standartlarga to'liq hamohangdir.

Sun'iy intellekt bugungi kunning real ish quroliga aylandi. Amaliyotdagi tajribalar ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston ta'lim tizimi o'zining raqamli rivojlanish yo'lini aniq belgilab olgan. Bugungi kunda joriy etilayotgan innovatsion platformalar o'qituvchini texnologiya bilan almashtirishni emas, balki uning ishini yengillashtirib, bor salohiyatini o'z ustida ishlash va yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirishni hamda metodik jihatdan qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Zero, bizning asosiy missiyamiz zamonaviy texnologiyalar imkoniyatidan foydalanib, yangi O'zbekistonning raqobatbardosh va bunyodkor avlodini tarbiyalashdan iborat.



Kamolot pillapoyasi

“Qizilqum ohanglari — 2025”

YANGI ISTE'DODLARNI KASHF ETISHDA DAVOM ETADI

Qizilqum haqida so'z ochilsa, ko'z o'ngimizda keng dala va poyonsiz cho'l gavdalanadi. Vaholanki, bugun mana shu kengliklarda chinakam jamol ochgan navqiron shahar va tumanlar, obod qo'rg'onu qishloqlar, manzilu ovullar joylashgan. Tabiiyki, ushbu go'shalarning o'z an'anasi, qadriyati, san'ati hamda ustozlari izidan kelayotgan yosh iqtidorlari bor. Ularni yuzaga chiqarish, rag'batlantirish va elga tanitishda “Qizilqum ohanglari — 2025” an'anaviy ijrochilik ko'rik-tanlovining o'rni beqiyos.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati kasaba uyushmasi kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan joriy yilgi an'anaviy festival “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi” davlat muassasasi tasarrufidagi barcha madaniyat maskanlari ijrochilarini, ijodiy jamoalar, yosh iste'dodlar va mohir ustozlarni bir sahnaga jamlab. Tanlov ko'lami, undagi ijodiy kayfiyat va san'atkorlar

mahorati — bularning barchasi tanlovning yil sayin nufuzli musiqiy an'angaga aylanib borayotganidan darak beradi.

“Qizilqum ohanglari — 2025” IV an'anaviy ijrochilik ko'rik-tanlovining birinchi bosqichida an'anaviy cholg'ular ansambllari va sozandalarning 10 ta, shuningdek, katta va kichik yosh toifasidagi xonandalarning 15 ta chiqishi ko'rib chiqildi.

Ikkinchi bosqichda esa ishtirokchilar bastakorlar ijodidan bittadan asar ijro etib, mahoratlarini namoyish etdi.

— Ushbu tanlovda hakamlar hay'ati raisi sifatida ishtirok etib, hududlarda an'anaviy ijrochilik san'atiga berilayotgan e'tibordan juda mamnun bo'ldim, — deydi O'zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova. — Iste'dodlarni ko'rib quvondik, ba'zan tanlovning mas'uliyatli daqiqalarida qiyaldik. Har bir ishtirokchi o'ziga xos chiqishlari bilan yodda qoldi. Mazkur tanlov misolida kombinat tizimidagi madaniyat muassasalari nafaqat san'at an'alarini asrab kelayotgani, balki yangi avlod ijodkorlarini tarbiyalash borasida ham ulkan yutuqlarga erishayotganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, g'oliblikni qo'lga kiritgan ijrochilarning sahnadagi ishonchi, mahorati va milliy kuy-qo'shiqqa mehrida ustozlar mehnatining samarasi yaqqol sezildi.

Festival davomida yakkaxon ijrochilar, ansambllar, sozandalar va ularga hamrohlik qilgan ustoz-murabbiylar uchun barcha qulayliklar yaratilib, jarayonning mazmunli va unutilmas o'tishiga zamin hozirlandi. Tanlov ishtirokchilari o'rta rasda do'stlik va ijodiy hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida NKMK kasaba uyushmasi kengashi tomonidan “Do'stlik oqshomi” ham tashkil etildi.

An'anaviy cholg'ular ansambli yo'nalishida Farhod madaniyat saroyining “Saraxbor” maqomchilar ansambli g'oliblikni qo'lga kiritdi. Buni jamoaning uzoq yillik izchil mehnati, ijro madaniyati va o'ziga xos talqinining munosib e'tirofi, desak yangilishmagan bo'lamiz. Ushbu jamoa sahnadagi uyg'unlik, kuylarning nafis talqini va milliy ijrochilik maktabiga xosligi bilan tomoshabinlar va hakamlar hay'atining yuksak bahosiga sazovor bo'ldi.



“

Yurtimizda milliy san'atni rivojlantirishga xizmat qilayotgan bunday tanlovlarning davomli bo'lishi yosh avlodni san'atga oshno etishi va ustozlar maktabini yanada mustahkamlashi shubhasiz. “Qizilqum ohanglari” jarangi esa yana ko'plab iste'dodlar qalbiga ilhom va quvonch bag'ishlayveradi.

Kichik yosh toifasida Uchquduq madaniyat saroyidan ishtirok etgan Azizbek Isomiddinovning g'alabasi yosh iste'dodlar safi kengayib borayotganidan darak beradi. Uning jarangdor ovozi, kuyiga bo'lgan sezzirgisi va sahnadagi erkinkidagi porloq kelajak hamda yorqin umidlar borligi ko'rinib turdi.

Katta yosh toifasida Zafarobod hududiy boshqarmasiga qarashli Paxtachi tumani Qamabota qo'rg'onidagi “Shodlik” klubi a'zosi Marjona Otaqulovning g'alabasi yillar davomida shakllangan mahoratning yorqin ifodasi bo'ldi. U ijro etgan qo'shiqlarda kuy ohangi, so'z mazmuni va sahna madaniyati o'zaro uyg'unlashib, tomoshabinlarga chinakam ma'naviy zavq ulashdi.

Tanlovda ishtirok etgan barcha jamoalar va yakkaj ijrochilar o'ziga xos ijro uslubini, mahorati hamda sahna madaniyati bilan alohida e'tirof etildi. Hakamlar hay'ati tomonidan bildirilgan fikrlarda ham tanlovning yuqori saviyada tashkil etilgani, ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi va san'atga bo'lgan ixlosi alohida ta'kidlandi.

Ushbu ko'rik-tanlov an'anaviy ijrochilik xalqimizning ko'hna musiqiy merosi, milliy o'zligimizning yorqin ifodasi sifatida bugun ham bardavom yashayotganini amalda yana bir bor namoyon etadi. Yurtimizda milliy san'atni rivojlantirishga xizmat qilayotgan bunday tanlovlarning davomli bo'lishi yosh avlodni san'atga oshno etishi va ustozlar maktabini yanada mustahkamlashi shubhasiz. “Qizilqum ohanglari” jarangi esa yana ko'plab iste'dodlar qalbiga ilhom va quvonch bag'ishlayveradi. Zero, an'anaviy san'at maktabi yo'qolmaydi, aksincha, yangidan yangi iste'dodlar bilan boyib boraveradi. Umidli yoshlar, tajribali ustozlar va fidoyi ijodiy jamoalarning bir sahnada jam bo'lishi nafaqat musiqiy madaniyatni yuksaltiradi, balki milliy ruh va qadriyatlarimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

To‘y – yaxshi an‘ana, ezgu odat. Uni ortiqcha dabdaba, isrofgarchilik bilan o‘tkazish esa, hech shubhasiz, illat. Shu kunlarda OAVda ayni illat oqibatlarini qoralab aytilayotgan fikrlar, amalga oshirilayotgan samarali loyihalarga ko‘zimiz tushyapti. Ularni o‘qiy turib, men ham tanishlarimdan biridan eshitgan hikoyani ulashgim keldi. Balki bu kim uchundir ibrat bo‘lib qolsa... Qani, unda hikoyani tanishimning o‘z tilidan o‘qiylik.

Hayotimning eng yorqin, eng unutilmas va... eng achqiq saboqlarini bergan voqealari silsilasini so‘zlashga jazm etdim. Ehtimol, bu iqrorm kim uchundir saboq, kim uchundir tanbeh bo‘lar, balki kimdir o‘zini, o‘z taqdirini ko‘rar. Oddiy, kamxarj oila farzandiman. Mamlakatimizning chekka hududlaridan birida unib-o‘sgan, orzulari osmon, biroq yelkasiidagi mas‘uliyat jussasidan og‘irroq bo‘lgan yigitman.

Kollejni bitirayotgan paytlarim yaxshi esimda. Ko‘ngilda ming bir orzu, ming bir reja. Ammo o‘sha orzularning barchasini bir chetga surib turgan ulkan bir “vazifa” bor edi: uylanish. Yo‘q, shunchaki uylanish emas, balki “odamlarga o‘xshab”, elga manzur bo‘ladigan, ota-onamning yuzini yorug‘ qiladigan tarzda uylanish. Axir o‘zimiz ham odamlarning to‘yida yeb-ichib, xizmatida yelib-yugurib yuribmiz. Bu xuddi qarz, uzilishi shart bo‘lgan qarz.

Shu taxlit to‘yga hali chamasi ikki yillar borligidayoq, diplomimni olishim bilan chet elga, musofirchilikka yo‘l oldim. Maqsad aniq: avvaliga uy-joyni ta‘mirlash, so‘ngra to‘y xarajatlariga pul jamg‘arish. Samolyotga chiqar ekanman, onamning yoshli ko‘zlariga qarab, “Tez qaytaman, ona, tez orada hammamizning orzularimiz ushaladi”, deya pichirlaganim yodimd.

Musofirlik noni qattiq ekan. Borgan joyimda eng og‘ir, eng mashaqqatli ishlarni bo‘ynimga oldim. Qurilishda beton tashidim, sovuq omborxonalarda yuk ortdim. Ertalab ko‘zimni ochganimda vujudim og‘riqdan zirqirar, kechasi yostig‘imga bosh qo‘yganimda esa vatan, oila sog‘inchi yuragimni ezardi. Ammo har safar hamyonimga kelib tushgan mablag‘ga qaraganimda, ko‘z oldimga obod bo‘layotgan hovlimiz, bo‘lajak to‘y dabbabasi kelar va barcha charchoqlarim yozilib ketgandek tuyulardi. Tun-u kun tinim bilmadim. “To‘y” degan so‘z men uchun qandaydir juda qadrdon, daxlsiz bir maqsadga aylanib qolgandi.

To‘yga bir yil qolganida ancha narsa o‘zgardi. Yuborgan pullarimga uyimiz chindan ham ko‘rkam bo‘ldi. Otam har telefon qilganida, “Uying bitdi, o‘g‘lim, endi o‘zing kelsang bas. Hamma havas qilaypti”, derdi. Bu gaplar menga qanot bag‘ishlardi. Biroq o‘sha “havas”ning badali og‘ir bo‘ldi. Begona yurtning zax

havasida tun-u kun ishlash oqibatida bir buyragimni qattiq shamollatdim. Necha kunlab shifoxonada yotdim. O‘pkamni to‘ldirib nafas ololmay, og‘riqdan ingrab chiqqan kechalarimda ko‘pincha o‘ylardim: “Shuncha mashaqqat kim uchun? Nima uchun?”. Ammo javob o‘sha-o‘sha edi: “To‘y uchun! El-yurt oldida yuzim yorug‘ bo‘lishi uchun!”. Shifoxonadan chiqqach, bir oz o‘zimni tiklab oldim va yana ishga sho‘ng‘idim. Muhimi, uy bitdi. Endi navbat to‘yning o‘ziga pul yig‘ishga kelgandi.

To‘yga olti oy qolganida topgan pulimni bir yo‘la sarflab yubormaslik uchun yangi reja o‘ylab topdim. Har ikki oyda topganimga bittadan sigir sotib ola boshladim. Niyatim to‘yga yaqin barchasini sotib, xarajatlarni bemaol qoplash edi. Bu reja o‘zimga ham ma‘qul keldi. Endi men faqat pul uchun emas, o‘sha mol-hol uchun ham ishlay boshladim. Har bir sigir ko‘z o‘ngimda bo‘lg‘usi to‘yning bir qismini — sozandani, dasturxonni yoki sarpolarini gavdalanitirdi.

Nihoyat, to‘yga bir oy qolganida vatanga qaytdim. Yoz fasli. Aeroportda yaqinlarimni bag‘rimga bosar ekanman, ikki yillik azoblarim unut bo‘lgandek his qildim. Hovlimizga kirib, chindan ham havas qilsa arziguulik sharoit yaratilganiga guvoh bo‘ldim. Otamning yuzidagi mamnuniyat, onamning duolari... Hammasi ajoyib edi. Sigirlarni ko‘zdan kechirdim. Soni to‘rtta bo‘libdi. Hisob-kitob qildim: shularni sotsak, kamtarona, ixchamgina to‘y qilsa bo‘ladi.

Ammo... Musofirlikda yurganimda bir niyat qilgandim: “To‘yni shunday zo‘r qilayki, hamma gapirib yursin. Axir men ham bu yerlarda bekorga ter to‘kmayapman”. Shu o‘y xayolimga kelishi bilan to‘rtta sigimning puli ko‘zimga juda kam ko‘rinib ketdi. Yaxshi san‘atkor chaqirish



Yangi kelinchakni ota-onamga omonat topshirdimu yana o‘sha begona tuproqqa yuzlandim. Aeroportda ortimga qayrilib qaraganimda, o‘zim qurgan hashamatli uy, o‘zim o‘tkazgan dabdabali to‘y — barchasi ko‘zimga ulkan bir aldamchilik, soxta bir ko‘rgazma bo‘lib ko‘rindi.

kerak. To‘yxona ham eng obro‘lisidan bo‘lishi lozim. “Bir marta bo‘ladigan to‘y-ku, ishlab qaytaraman”, degan o‘z-o‘zini ovutish bilan xorijda birga ishlagan o‘rtoqlarimga telefon qildim. Yana uchta sigimning pulini qarzga oldim. Endi o‘zimni ancha xotirjam his qila boshladim. Axir to‘yim dabdabali bo‘ladi!

To‘yga uch kun qoldi. Bu pallalar, shubhasiz, umming eng yorqin, eng totli lahzalari bo‘lsa

kerak. Hamma xursand, hamma yelib-yugurib xizmatda. Kunda-kunora bo‘lajak qudalar bilan sovg‘a-salom almashish, “quda chaqirdi”, u-bu marosimlar... Bu kunlarda insonning xayoliga biror salbiy fikr kelmas ekan. Atrofing faqat yaxshi niyatli, senga “maslahat” beradigan odamlar bilan to‘la bo‘ladi. Yaqin do‘stlar, qarindoshlar birin-ketin “Unday qil, falon narsa kam bo‘lmasin”, “Pistonchining to‘yida unaga bo‘lgandi, senikida bunisi ham bo‘lishi kerak”, degan takliflarni o‘rtaga tashlay boshladi. “To‘yim hech kimnikidan kam bo‘lmasin!” degan yagona bir istak vujudimni shu qadar qamrab oldiki, ularning aytganlarini ham qildim, albatta, qarz evaziga.

O‘sha “maslahatchilar”ning har bir gapi o‘qdek tegardi. “Falconchining o‘g‘li Yevropadan kelib, butun mahallani restoranga chaqirdi, sen oddiygina to‘yxonada o‘tkazasanmi?” deydi bir amakim kinoya bilan. “Sarp masalasini nima qilding? Qudaning obro‘sinu o‘yla! O‘nta ko‘rpacha, yigirmata poydondan kam bo‘lsa, gap-so‘z bo‘ladi”, deydi xolam. Men o‘zimni oqlashga urindim: “Axir hech bo‘lmasa shularini ixchamroq qilsak-chi...”. Bu gapim o‘tga moy sepandek bo‘ldi. “Bir kunlik to‘yda yuzing yorug‘ bo‘lmasa, keyin qanday bosh ko‘tarib yurasan?”. Shu savol — “El-yurt nima deydi?” degan o‘sha mash‘um savol mening oxirgi qarshiligimni ham sindirdi. Otam... bechora otam bir chekkada indamay o‘tirardi. Uning ko‘zlarida norozilik emas, ojizlik ko‘rardim. U ham shu “el-yurt”ning bir parchasi ekanidan, o‘g‘lini bu girdobdan tortib oloalmasligidan ezilayotgani shundoqqina ko‘rinib turardi. Xullas, o‘sha

“el”ning og‘zini yopish uchun yana qarz oldim. Boyagi yetti sigimning puli endi faqat oziq-ovqat va restoranga zo‘rg‘a yetadigan bo‘lib qolgandi. Avtomobil karvoniga, kuyovnavkar marosimiga, qudalarga beriladigan u-bularga yana va yana qarz oldim. “Kimo‘zar”ga o‘zim bilmagan holda qo‘shilib qolgandim va bu poygada g‘olib bo‘lish uchun borimni tikishga tayyor edim.

To‘y kuni... O‘sha kunni ta‘riflashga tilim ojiz. Hamma narsa ko‘ngildagidek, men orzu qilgandam ham a‘lo darajada o‘tdi. Dasturxonlar to‘kin-sochin. Taniqli san‘atkorlarning kuy-qo‘shiqlari avjida. Otamning ko‘ksiga shamol tegib, kelgan mehmonlarga birma-bir e‘tibor ko‘rsatib yurishi, onamning chehrasidagi baxtiyorlik... Yor-u do‘stlar, qarindoshlar to‘yning dabbadasidan hayratda ekanini bot-bot takrorlardi. Rafiqam ikkimiz o‘sha kuni dunyodagi eng baxtli juftlik edik. Kayfiyatim shu qadar chog‘edik, mendan baxtli odam yo‘qdek tuyulardi o‘zimga.

Ha, men baxtiyorman deb o‘ylardim. Ko‘zim qamashgandi. Atrofimdagi yaltiroq liboslarga, yuzlab odamlar shovqiniga, san‘atkorning soxta maqtoovlariga ko‘milib qolgandim. O‘sha kuni qancha oziq-ovqat isrof, qancha non ushoqlari oyogosti bo‘lganini idrok qilmasdim. Dasturxonga qaramagan odamlar to‘yxonadan ko‘ra ko‘proq bir-birining ust-boshini, taqqan tilla taqinchog‘ini muhokama qilayotgan ayollarni ko‘rmasdim. Bir lahza o‘zimni chetdan kuzatgim keldi: qimmatbaho kostyum-shim kiyyan, yuziga “baxtli” niqobini tortgan, ammo vujudi qarz botqog‘iga botib borayotgan bir qo‘g‘irchoq. Ammo bu o‘ylar bir soniya, bir lahza keldi-yu, yana o‘sha “g‘urur” to‘lqini tomonidan yuyib ketildi. Axir to‘yim hammanikidan zo‘r o‘tayotgandi! Hammanikidan zo‘r! Shu so‘z o‘sha kuni men uchun baxtning o‘lchovi edi.

To‘ydan o‘n kun o‘tgach... To‘yning shovqin-suroini tindi, uzoq-yaqin mehmonlargacha tarqaldi. Tongda rafiqam ikkimiz nonushatga o‘tirganimizda, hamyonimda pul qolmagani esimga tushdi. Qarasam, yashashda davom etish uchun, oddiy ro‘zg‘or qilish, maydachuyda xarajatlar uchun ham pul kerak ekan. To‘yning dabbabasi bilan bo‘lib, ertangi kun haqida o‘ylash xayolimizga ham kelmagan ekan. Shu kunlarda haligi qarz olgan insonlarim ham birma-bir qo‘ng‘iroq qilib, avval hol-ahvol so‘rab, so‘ngra qarz masalasini ohista eslata boshladi.

O‘sha eslatishlar tez orada ochiq-oydin talabga aylandi. “To‘y o‘tdi, endi qarzni bersangiz...zarur bo‘layotgandi”, degan gaplar har kuni qulog‘imga chalinaradi. Uyda ham halovat yo‘qoldi. Rafiqam bilan endi shirin orzular qurish, kelajak rejaralarini tuzish o‘rniga telefonning har jiringlashidan xavotirga tushadigan bo‘ldim. Rafiqam avvaliga hech narsani tushunmadi. “Tinchlikmi, nima bo‘lyapti?” deya so‘raganida, “Ishdagi muammolar”, deb alddardim. Ammo yolg‘onning umri qisqa ekan. Bir kuni qarzdorlardan birining otasi uyga kelib, eshikda ovozin balandlatganida, hamma sir ochildi. O‘sha kuni rafiqamning mendan nigohlarini olib qochishini ko‘rdim. U indamadi. Faqat kechasi bilan yig‘lab chiqqanini eshitib yotdim. O‘rtamizdagi samimiyatga, ishonchga birinchi kunlardanqoq darz ketgandi. Men bir kunlik obro‘ni deb

bir umrlik yo‘ldoshimning ko‘ziga tik qaray olmaydigan holatga tushib qolgandim. Uning “Otam aytgandi, buncha dabdaba qilmasangiz ham bo‘lardi”, deb pichirlagani yuragimga xanjardek sanchildi. Xullas, bo‘ynimda tog‘dek qarz bilan to‘ydan keyin o‘n kun ham xotirjam yashay olmadim. Kechalari uyqusizlik qiynay boshladi. Bir kunlik shon-shuhratning bahosi shuncha og‘ir bo‘lishini tasavvur ham qilmagandim.

To‘ydan bir oy o‘tgach, vaziyat butunlay chigallashdi. Qarz olganlarim tinmay bezovta qila boshladi. Uyda tinchlik yo‘qoldi. Yagona yechim bor edi: yana o‘sha musofirchilikka yo‘l olish. Qarzlarni uzish va... ozroq pul to‘plab qaytish. Niyatimni rafiqamga aytdim. Bechora yangi kelinchak, ko‘zlarimga mo‘ltirab qarab turib, o‘zini tiya olmay yig‘lab yubordi. “Endi baxtli yashaymiz deganimda...”, deya pichirladi u. Yuragim ezilib ketdi. Uni ovutishga so‘z topolmadim. Axir men yana xorijga ketmasam bo‘lmasdi. O‘z qo‘llarim bilan qurgan baxt qasrimni o‘z qo‘llarim bilan barbod qilayotgandek edim.

To‘ydan qirq kun o‘tgach... Urf-odatga ko‘ra, “chilla”ni chiqardim. Oila a‘zolarim, yaqinlarim bilan xo‘rluk aralash xayrlashdim. Yangi kelinchakni ota-onamga omonat topshirdimu yana o‘sha begona tuproqqa yuzlandim. Aeroportda ortimga qayrilib qaraganimda, o‘zim qurgan hashamatli uy, o‘zim o‘tkazgan dabdabali to‘y — barchasi ko‘zimga ulkan bir aldamchilik, soxta bir ko‘rgazma bo‘lib ko‘rindi. O‘sha paytlardagi ahvolimni, yuragimdian kechgan iztiroblarni, rosti, so‘z bilan ta‘riflab bera olmayman. Bir kunlik “podshohlik” tovonini to‘lash uchun xuddi yana “qullik”ka otlanayotgandim.

To‘ydan olti oy o‘tgach, mana, men yana o‘sha tanish qurilishdaman. Qora mehnatdaman. Kecha-kunduz tinim bilmay ishlab, qarzarimning barchasini uzib bo‘ldim. Ha, qarzdan qutuldim. Ammo nimalaridir yo‘qotdim. Nima ekanini o‘zim ham aniq bilmayman... Balki vaqtini, balki ishonchini, balki shunchaki baxtli yashash imkoniyatini. Uyga juda qaytgim kelyapti. Rafiqamni, ota-onamni sog‘indim. Har kecha ulan bilan telefonda gaplashganimda, ovozingma soxta bardamlik berishga urinaman. Lekin... uyga ham quruq qo‘l bilan qaytib bo‘lmaydi-ku. Axir oilani boqish kerak. Endi yana olti oycha ishlab, ro‘zg‘or kerakli narsalarni olib, keyin qaytish niyatidaman.

Ba‘zan ishim og‘ir kelgan paytlarda, yolg‘iz qolganimda o‘ylanib qolaman: kim biladi deysiz, agar o‘sha bir kunlik tadbirni isrof qilmay, ixchamroq o‘tkazib, qarzga botmasam... O‘sha dabbabaga ketgan sarmoyaga, o‘sha sigirlarning puliga biror kichikroq tadbirkorlik boshlaganimda... Balki bugun bu yerlarda, o‘z yaqinlarimdan minglab chaqirim uzoqda, begona yurtning sovuq yotoqxonasida o‘z vatanimni qo‘msab, sog‘inch azobida yurmamdim?

Ba‘zan bu yerdagi yotoqxonada o‘tirib, atrofimdagi o‘zimga o‘xshagan musofirlarga qarayman. Har birining taqdiri bir-biriga o‘xshash. Kimdir o‘g‘lining to‘yiga qarz olib, uzolmay kelgan, kimdir qizining sarposi uchun bu yerda salomatligini “sotaypti”. Biz ko‘pchilikmiz. Biz “el-yurt nima deydi?” degan savolning tirik qurbonlarimiz. Biz o‘zimiz yaratgan isrofgarchilik degan “ajdaho”ning changalida yashayotgan “baxtiyorlar”miz.

Men o‘zimni oqlamoqchi emasman. Men “el-yurt nima deydi?” degan andishaning qurboniman. Men “bir marta bo‘ladi-ku”, degan aldamchi shiorning asiriman. Men dabbabani baxt deb o‘ylagan, bir kunlik ko‘rgazma uchun oylab, yillab tinchligini yo‘qotgan nodon bir yigitman.

Iqrormi tugatar ekanman, bitta savol hamon menga tinchlik bermaydi: biz qachon to‘y uchun yashashni emas, yashash uchun to‘y qilishni o‘rganamiz? Qachon bir kunlik dabbadadan ko‘ra, bir umrlik baxt-saodatni ustun qo‘yadigan bo‘lamiz? Bilmadim... Hozircha esa men yana ishga borishim kerak. Axir uyga quruq qo‘l bilan qaytib bo‘lmaydi...

Xulosa o‘zingizdan.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Milliy qadriyatlarimiz

80 YOSHDA HAM SERG‘AYRAT, FAOL

Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda ularni kelajak avlodga bezavol yetkazish muhim ahamiyatga ega. Xalqimizning ko‘hna an‘analari va qadimiy hunarmandchiligi ham izchil rivojlanib, mazmunan takomillashib bormoqda. Shovot tumanida yashovchi Hayitjon momo Abdullayeva ma‘naviy merosni qayta tiklash va yoshlar qalbidga unga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga hissa qo‘shib kelayotgan yurtdoshlarimizdan.

Umring aksariyat qismini turli mehnat jabhalariga, xususan, quroqchilik san‘atiga bag‘ishlagan Hayitjon momo 80 yoshni qarshi olayotganiga qaramay, hamon serg‘ayrat va faol. Onaxonning ta‘kidlashicha, uning ushbu hunarga mehri bolaligidanoq onasining o‘g‘itlari va ko‘magida shakllangan. Boisi, o‘sha davrlarda quroqchilik Xorazm ayollari orasida keng tarqalgan va eng sevimli mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan.

— Yoshligimda onam menga chevarlik sirlarini o‘rgatgan. Quroq tikish esa o‘sha paytlarda urfga kirgan edi, — deydi Hayitjon momo. — Bugun ham yosh oilalarga baxt-saodat tilab, quroqlar tayyorlab beryapman. Bu — momolarimizdan qolgan qadimiy meros. Ushbu hunarni davom ettirayotganimdan faxrlanaman. Hunar insonni yoshartiradi.

Hayitjon momo tikkan har bir quroq nafaqat go‘zalligi, balki o‘ziga xos chuqur ma‘no-



mazmunga egaligi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, to‘y-tantanalarda kelin-kuyovlar uchun mo‘ljallangan quroqlar milliy urf-odatlar va zamonaviy uslub uyg‘unligida tikiladi. Ranglar mutanosibligi, bezaklarning o‘zaro mosligi va chevar qo‘llar mehnati har bir buyumni yanada qadrlı va betakror qiladi.

Bugun Hayitjon momo “Hunarmand” uyushmasining faol a‘zosi sifatida ko‘plab yoshlarga hunar o‘rgatib kelmoqda. Uning saboqlari, mehnatga muhabbati va bag‘rikengligi shogirdlar uchun o‘ziga xos ibrat maktabi. Shu bois, ko‘pchilik yurtdoshlarimiz quroqchilik kabi unutilib borayotgan san‘at turini qayta tiklatganida bitta onaxonga minnatdorlik bildiradi.

Hayitjon momoning sermazzun mehnati va ezgu tashabbuslari shunchaki hunarmandchilik emas, balki milliy o‘zligimizni asrash yo‘lidagi yuksak xizmat hamdir. Oramizda shunday fidoyi insonlar bor ekan, xalqimizning ma‘naviy merosi, xususan, ayollar hunarmandchiligi yanada ravnaq topib, kelajak avlodga to‘laqonli yetkazilaveradi.

Asadbek YUSUF,
O‘ZJOKU talabasi